

YOSHLAR ORASIDA OILAVIY MOJOROLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI.

Qahramonova Zuhaxon Elmurodjon qizi.

Ilmiy rahbar: Ziyovuddinova Xumoraxon.

Andijon davlat universiteti

Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola yosh oilalarda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar, ziddiyatlar, ajrimlarning kelib chiqish sabablari tahlil qilinadi. Yosh oilalar orasida yuzaga keladigan mojarolarning asosiy sababi moddiy yetishmovchilik, nogiron farzandlarning tug'ilishi, yoshlarni psixologik va fiziologik jihatdan oila qurishga tayyor emasligi. Shuningdek, maqolada oilalarning jamiyatdagi o'rni, yosh oilalarning ortishi bilan birga ajrimlar sonining ko'payishi, oila jamiyatning bir bo'g'ini ekanligi psixologik nazariyalar bilan uyg'un holda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: yosh oila, empatiya, nikoh, mas'uliyat hissi, jamiyat, turmush, oilaviy munosabat, muloqot.

Abstract: This article analyzes the causes of conflicts among young families are financial insufficiency, the birth of disabled children, and the psychological and physiological unpreparedness of young people to start a family. The article also examines the role of families in society, the increase in the number of divorces with the increase in young families, and the fact that the family is a part of society, in accordance with psychological theories.

Keywords: young family, empathy, marriage, sense of responsibility, society, life, family, relationships, communication.

Аннотация. В статье анализируются причины разногласий, конфликтов и разводов в молодых семьях. Основными причинами разногласий в молодых семьях являются финансовая необеспеченность, рождение детей-инвалидов, а также психологическая и физиологическая неготовность молодых людей к созданию семьи. В статье также рассматриваются роль семьи в обществе, рост

числа разводов с ростом числа молодых семей и роль семьи в обществе в соответствии с психологическими теориями.

Ключевые слова: молодая семья, эмпатия, брак, чувство ответственности, общество, жизнь, семейные отношения, общение.

Hozirgi glaballashuv davrida yoshlar hayot tarzi, qadriyatlari va dunyoqarashida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu esa avlodlar aro tofovut va oilaviy kelishmovchiliklarni kuchaytiradi. Ayniqsa, yangi oila qurgan yoshlar orasida oilaviy mojarolarning soni ortmoqda. Yoshlar orasida oilaviy mojarolarning kelib chiqish sabablari, ularning ildizi, oqibatlarini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Oila jamiyat ijtimoiy tarkibining muhim element sifatida o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Imiy nuqtai nazardan tahlil qilinganda, yosh oila bu- jamiyatda mavjud bo'lgan o'ziga xos ijtimoiy guruh bo'lib, o'z navbatida u davlat va jamiyatning istiqbolli rivoji va mafkuraviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Yosh oilaning o'ziga xosligi va kattalar oilasidan farqi shundaki, u mustaqil hayotni birgalikda boshlagan ikki yoshning qovushuvi bo'lgani sababli, ularning o'z orzu- havaslari, niyat-maqсадlariga erishish, farzand ko'rib, uni voyaga yetkazish yo'lidagi turli muammolari boladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida, jamiyatda tub islohatlar amalga oshinilayotgan, yoshlar tarbiyasi va ularning farovon turmush qurushi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirilgan bir sharoitda yosh oilaning manfaatlarini himoya qilish o'ta muhim va dolzarb masaladir. Xususan, hukumatimiz tomonidan oilani, oila-nikoh munosabatlarini mustahkamlash va rivolantirishga qaratilgan qarorlar qabul qilingan. Ulardan biri, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda itimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida "2020-vil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni ijrosini taminlash, shuningdek, oilaviy hayotga tayyorlash va zamonaviy namunali oila mezonlarini hayotga joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda yoshlar ishlari agentligining tuman,

shahar, oila xotin qizlar bo'limlari huzurida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi.

Yosh oila borasidagi muhim masalalardan biri- yoshlarning o'zaro munosabatlari va ularning munosabatlar tizimiga ko'nikish masalasidir. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, yosh oilaning tinch-totuvlikda yashashiga halaqit berayotgan sabablardan biri- qaynonalar bilan yangi kelinchaklarning tez kirishib, til topishib keta olmayotganligi. Bu ham oilaviy munosabatlar borasidagi muammolardir. Chunki ayniqsa, shahar sharoitida bitta yoki ikkitadan o'g'il o'stirgan ona ko'pincha yangicha munosabatlar tizimiga o'zi ko'nika olmaydi va kelinchakni ham tezroq ko'nikib ketishiga yordam berish chora tadbirlarini bilmaydi. Bu esa qaynonaning kelin bilan munosabatlarida o'ziga xos rashk va raqobatga o'xshash holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada, bunday hissiy kechinmalar qaynonaning kelinga nisbatan adolatli va bag'rikeng tarzda munosabat bildirishiga to'sqinlik qiladi. Yoshlar orasida oilaviy mojarolarning kelib chiqish sabablariga erta nikoh, nogiron farzandlar, moliyaviy yetishmovchilikni ham asos qilib keltirish mumkin.

Bundan tashqari, er-xotin o'rtasida kuzatiladigan nizolarning muhim omillaridan biri - mehnat faoliyatiga haddan tashqari sho'ng'ib ketgan ayrim erkaklarning turmush o'rtog'iga nisbatan e'tiborining susayishidir. Bunday holatda ular uy xo'jaligi ishlari va farzand tarbiyasi jarayonida ishtirok etmay, o'z uyiga faqat tunash uchun keladigan shaxs sifatida namoyon bo'ladilar. Natijada oilaviy munosabatlarda hissiy sovuqlik va mas'uliyatning yetishmasligi ziddiyatlarni kuchaytiradi. Shu sababli, bunday kelishmovchiliklarning oldini olishda erkakning oilaviy jarayonlarga e'tiborli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oila barqarorligini ta'minlash uchun er ham, xotin ham bir-birining hissiy kechinmalarini tushunib, ular bilan baham ko'ra olishi lozim. Psixologiyada bu hodisa "empatiya" deb ta'riflanadi.

Jamiyatda barqaror va sog'lom oilalar ulushini oshirishga qaratilgan eng muhim normativ-huquqiy choralaridan yana biri – "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi" to'g'risidagi nizomning joriy etilishidir. Mazkur tartib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-avgustdagi 365-sonli qarori bilan

tasdiqlangan bo'lib, unda nikohga kirayotgan barcha fuqarolar majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi belgilangan. Nizom talablari bo'yicha bo'lajak turmush o'rtoqlar besh asosiy kasallik turi - sil, teri va tanosil kasalliklari, giyohvandlik, OITS hamda ayrim ruhiy buzilishlar bo'yicha tekshiruvdan o'tkaziladi. Bu kasalliklarning tanlanishiga sabab, ularning bevosita reproduktiv salomatlik va naslning sog'lom shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatishidir.

Oila institutining mustahkamligi, farzandlarning sog'lom o'sishi hamda jamiyatning ijtimoiy barqarorligi ko'p jihatdan ota-onaning ma'naviy va psixologik tayyorgarligiga bog'liq. Shu bois ota-onalar o'z farzandlarini oilaviy hayotga mas'uliyat bilan yondashadigan, turmush o'rtog'iga hurmat va sadoqat ko'rsata oladigan, oilaviy vazifalarni to'g'ri anglaydigan shaxs sifatida tarbiyalashi zarur. Psixolog olimlardan A. Adlarning ta'kidlashicha, nikoh muvaffaqiyati er-xotin o'rtasidagi "ijtimoiy hamkorlik", ya'ni bir-birining ehtiyojlarini anglay olish va oilaviy vazifalarni uyg'un taqsimlay olishga bog'liq. Shuningdek, E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida ham voyaga yetgan insonning eng muhim vazifalaridan biri - yaqinlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, oilaviy rolni to'laqonli bajarishdan iboratligi qayd etiladi.

Amaliy kuzatishlarga ko'ra, ayrim yoshlar oilaviy hayotga ma'naviy va hissiy jihatdan yetarlicha tayyor bo'lmay, mas'uliyatning mohiyatini chuqur anglamasliklari aniqlanmoqda. Bunday yoshlar ko'pincha oilaviy byudjetni rejalashtirish, unda belgilangan tartiblarga amal qilish, uy xo'jaligi ishlarini adolatli taqsimlash, ota-onalar fikrini inobatga olish kabi muhim ko'nikmalarga ega emaslar. Natijada ular oilada kelib chiqadigan kundalik muloqot va majburiyatlarni boshqarishda qiynalib, bu esa oilaviy ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Olimlarning ta'kidlashicha, jamiyatda sog'lom va barqaror oilalarni shakllantirish uchun yoshlarni nikoh va oilaviy hayotga psixologik, ijtimoiy hamda iqtisodiy mas'uliyat nuqtai nazaridan tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Shu kontekstda, nikoh oldi tibbiy ko'rik tizimi bu tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi, chunki u sog'lom avlod va mustahkam oilaviy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Virgina Satirning oila va kommunikatsiya nazariyasi oilani dinamik tizim sifatida talqin qiladi. Satir fikricha, oilaviy tizimdagi deyarli barcha nizolar noto'g'ri yoki buzilgan muloqotlardan kelib chiqadi. Uning yondashuvining asosiy maqsadi -oiladagi muloqotni sog'lom va konstruktiv shaklga aylantirishdir. Bu jarayon har bir oilaviy a'zoni shaxs sifatida e'tirof etish, oilada emosional yaqinlik va ishonchni rivojlantirish hamda a'zolarga o'z fikrini erkin ifoda etish imkonini yaratishni o'z ichiga oladi. Satirning nazariyasi nafaqat psixoterapevtlar uchun, balki ota-onalar va turmush qurayotgan yoshlar uchun ham oilaviy muloqotni tahlil qilish va uni sog'lom yo'nalishga yo'naltirishda amaliy ko'rsatma vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-5938-son Farmoni: Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini qo'llab-quvvatlash va oila hamda xotin-qizlar bilan ishlash tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent, 18-fevral 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 365-sonli qaror: Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida. Toshkent, 25-avgust 2023.
3. Abdullayeva D., Yorqulov Y., Atabayeva N. Oila psixologiyasi: o'quv qo'llanma. Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2015.
4. Адлер А. Наука жить / пер. Е. Антонова, Ю. Гиматова. Санкт-Peterburg: Питер, 2021. 240 с. ISBN 978-5-4461-1726-0.
5. Aliyev B., Mullajonova M., Rahmonov B. Sotsiologiya. Toshkent: Iqtisodiyot, 2011.
6. ЭриксонЭ., Эриксон Дж. Полный цикл жизни / пер. Т. Зверевич. Санкт-Peterburg: Питер, 2024. 160 с. ISBN 978-5-4461-2403-9.
7. Karimova V. M. Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
8. Karimova V. Sotsial psixologiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
9. Shoumarov G. B., Haydarov I. O., Sog'inov N. A., Akramova F. A., Solihova G., Niyozmetova G. Oila psixologiyasi. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010.